


O'zbekiston Respublikasi

Davlat statistika qo'mitasi

2017 yil dekabr oyi uchun O'zbekiston Respublikasining iste'mol sektorida inflyatsiya darajasi

1. Iste'mol narxlari indeksi (INI) va inflyatsiya darajasi

2017 yilning dekabr oyida tovar va xizmatlar narxlari darajasi o'rtacha 2,7 %ga oshdi, jumladan, oziq-ovqat mahsulotlari 4,4 %ga, nooziq-ovqat mahsulotlari 1,8 %ga va xizmatlar 0,8 %ga ko'tarilgan.



Diagrammada ko'rinmoqdaki, 2017 yil dekabr oyida asosiy inflyatsion omil sifatida oziq-ovqat mahsulotlari narxlarining o'sishi bo'ldi (ta'sir ulushi 70,2 %).

Ma'lumot uchun: 2016 yilning dekabr oyida oziq-ovqat mahsulotlari narxlarining ko'tarilishi umumiy INI o'sishida 73,3 %, nooziq-ovqat mahsulotlari 22,2 %, xizmatlar 4,5 % ni tashkil etgan.

2. Oziq-ovqat mahsulotlarining iste'mol narxlari indeksi

Yuqorida qayd etilganidek, oziq-ovqat mahsulotlari oy davomida o'rtacha 4,4 %ga qimmatlashib, INI umumiy o'sishini 1,9 f.d¹ ta'minladi.

Ma'lumot uchun: 2016 yilning dekabr oyida oziq-ovqat mahsulotlari 2,0 %ga qimmatlashgan.

2017 yil dekabr oyida asosiy turdagi oziq-ovqat mahsulotlari narxlarining o'sishi

(o'tgan oyga nisbatan % da)



2017 yil dekabr oyida asosiy turdagi oziq-ovqat mahsulotlari narxlari o'sishi bilan bir qatorda, ayrim mahsulotlarning narxlari arzonlashganligi kuzatildi. Jumladan sabzi 15,9 %ga, karam 5,9 %ga, mosh 4,7 %ga va parranda go'shti mahsulotlari narxlari 4,5 %ga arzonlagan.

3. Nooziq-ovqat mahsulotlarining iste'mol narxlari indeksi

Nooziq-ovqat mahsulotlarining oy davomida 1,8 %ga qimmatlashdi, bu o'z navbatida umumiy INIning 0,6 % f.d. o'sishiga olib keldi.

Ma'lumot uchun: 2016 yilning dekabr oyida nooziq-ovqat mahsulotlari narxlari o'sishi 0,8 %ni tashkil etgan.

¹ f.d. - foiz darajasi

Nooziq-ovqat mahsulotlari narxlarining umumiy o'sishda 75,0 %ni quyidagi mahsulotlar hisobiga ro'y berdi:



Umumiy INI o'sishidagi ta'siri 0,5 f.d.

4. Xizmatlar iste'mol narxlarini indeksi

Aholi uchun pullik xizmatlar sohasi dekabr oyida 0,8 %ga qimmatlashdi. Bu esa iste'mol narxlarini indeksining umumiy o'sishiga 0,2 % f.d.da ta'sir qildi.

Ma'lumot uchun: 2016 yilning dekabr oyida xizmatlar sohasi tarifi 0,3 %ga oshgan.

Ushbu sohada asosiy inflyatsion omil sifatida huquqiy xususiyatga ega xizmatlar va bank xizmati tariflari 15,0 %ga, maishiy xizmatlar 1,6 %ga, ta'lim xizmatlari 1,2 %ga va tibbiyot xizmatlari 1,1 %ga qimmatlashdi.

¹ f.d. - foiz darajasi